

MUSLIM IBN AL-HAJJAJ HAYOTI VA HADIS ILMIDAGI ILMIY FAOLIYATI

Shamshidinova Karima Alijon qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti, 4-kurs talabasi

Yo'nalish: 60220300 – Tarix
(mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Annotatsiya:

Mazkur maqola islom tarixida muhim o'rin egallagan yirik muhaddis, hofiz Muslim ibn al-Hajjajning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan. Unda allomaning hayot yo'li, hadis ilmini o'rganishga kirishgan davri, ustozlari, ilmiy sayohatlari, shuningdek, hadislarni to'plash va saralashdagi yondashuvlari batafsil yoritilgan. Muslim ibn al-Hajjajning hadis ilmidagi yuqori darajadagi yetukligi, unga zamondoshlari va keyingi avlod ulamolari tomonidan berilgan baholar, ayniqsa "hofiz" unvoniga sazovor bo'lishi uning ilmiy salohiyati va mashaqqatli mehnatini ko'rsatib beradi. Maqolada, shuningdek, olimning shaxsiy hayoti, uylanganligi, farzandlari haqida tarixiy manbalar asosida olib borilgan izlanishlar ham o'z aksini topgan. Muslim ibn al-Hajjajning hadis ilmidagi fidokorona sa'y-harakatlari, hadislarni yod olishdagi qobiliyati, ilmiy anjumanlardagi qatnashuvi va o'zining mashhur hadislarni izlash jarayonida ko'rsatgan jiddiyligi ilmga bo'lgan yuksak ehtiromini namoyon etadi. Maqolada tarixiy manbalar – Ibn Xallikon, az-Zahabiy, al-Bag'dodiy va boshqa mu'tabar olimlarning asarlaridan foydalanilgan. Ushbu ilmiy ish hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishida Muslim ibn al-Hajjajning tutgan o'rnini chuqur yoritadi va bu yo'nalishda izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar hamda talabalarga amaliy foyda beradi.

Kalit so'zlar:

Muslim ibn al-Hajjaj, hadis ilmi, hofiz, islom tarixi, hadislar to'plami, ilmiy meros, hadis rivoyati, tarixiy manbalar, muhaddislar, ilmiy sayohatlar, hadislarini tasniflash, islom olimi.

Asosiy qism:

Muslim ibn al-Hajjajning to'liq ismi Abul-Husayn Muslim ibn al-Hajjaj ibn Varad ibn Karshon al-Kushayriy an-Naysaburiy bo'lib, uning tug'ilgan yili haqida har xil (204 hijriy, 819 milodiy, 206 (821, 204) 819) sanalar keltirilsa-da, ko'pchilik tarixnavislar (masalan, az-Zahabiy, Ibn Hajar al-Asqaloniy, as-Suyutiy va boshqalar) 204 hijriy (819 milodiy) yil deb yozadilar. Muslim ibn al-Hajjajga yaqinroq davrda yashagan arab tarixchisi Ibn Hallikon (1211–1282) uni 821 yilda tug'ilganligini ta'kidlaydi.¹ Bu fikr hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ibn Hallikonning o'zining yozishicha, u bu ma'lumotni Ibn Saloxdan olganligini, u ham o'z navbatida "Ulamo'i amsor" nomli mashhur asarning muallifi, hijriy to'rtinchi asrda yashagan (321–405 yillar) al-Hokim an-Naysaburiydan ko'chirib olganligini ta'kidlaydi. O'sha davrda hozirgi Nishopur ilm-fan va madaniyati gullab-yashnagan shaharlardan bo'lib, mashhur arab olimi Yoqub Hamaviy uni haqida shunday hikoya qilgan: "Nishopur azim shahar va turfa xil fazilatlarga boy, fozilu fuzalolarning koni, olimu ulamolarning manba'i bo'lib, uningdek ziyorat (matnda tavof) qilinadigan shaharni hech ko'rganim yo'q", deb yozadi. Haqiqatan ham Nishopurdan juda ko'p yirik olimu ulamolar yetishib chiqqan. Muslim ibn al-Hajjajning bolalik yillari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Olimlarning taxminlaricha, o'sha davrdagi taomilga ko'ra u dastlabki tahsilni o'z otasi al-Hajjaj va boshqa ulamolardan olib, Qur'oni karimni yod olgan. Chunki tarixchi Ibn al-Asokirning yozishicha, Muslimning otasi o'z davrining yetuk olimlaridan bo'lib, ko'pchilik ilm toliblariga ustoizlik qilgan. Az-Zahabiy o'zining Tazkirat ul-huffoz ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida: "Muslim hadis ilmini o'rganishni 218 hijriy (832 milodiy) yilda

¹ Ibn al-imod "Shajaratul-zahab" 2-jild, B.144

boshlagan"² deb yozishdan xulosa qiladigan bo'lsak, U 12 yoshidan boshlab diniy (eng avvalo Quroni Karimni yod olib so'ng xadis va boshqa) ilimlarni o'rgana boshlaydi Muslim ibn al-Hajjajning shundan keyingi hayoti, xususan, uning oilaviy ahvoli, u uylanganmi yoki yo'qmi? Uylangan bo'lsa, farzandlari bo'lganmi? – degan savollarga ham aniq javob manbalarda ko'rsatilmagan. Har holda Muslim ibn al-Hajjajning Abul-Husayn (Husaynning otasi) kunyasi bilan atalishi uning Husayn nomli o'g'li bo'lganligiga ishoratdir. Bu o'rinda "Bag'dod tarixi" nomli ko'p jildlik yirik asarning muallifi, taniqli tarixchi al-Xatib al-Bag'dodiyning (1002–1071) Muslim ibn al-Hajjaj haqidagi quyidagi rivoyatni keltirish ham uning oilaviy hayoti haqida muayyan tasavvur beradi: "Ilmiy-ma'rifiy majlislarining birida Muslim ibn al-Hajjaj qachonlardir eshitgan bir hadis haqida aytib qolganlarida, darhol u majlisni tark etib chiqib ketdi. Uyga kelgach, shamni yoqib uydagilariga: "Mening huzurimga sizlardan birontangiz ham kirmanglar", – dedi. Ular: "Bizga bir savat xurmo hadya qilganlar (keltirganlar)"³ deyishadi. Savatni menga keltiringlar", – degach, ular savatni unga taqdim qildilar", – deb yozadi. Bu voqeadan xulosa chiqaradigan bolsak Muslim ibn al-Hajjaj hayotining oxirlarida, uning vafotidan bir muncha muddat oldin yuz bergan. Bu ma'lumotlardan sezilib turibdiki, Muslim ibn al-Hajjajning uyida bo'lganlar, albatta, uning hotini va o'g'il-qizlari bo'lishi kerak. Ilm bilan bir qatorda Muslim ibn al-Hajjaj yana biror kasb-hunar bilan ham shug'ullanganmi, degan fikr tug'ilishi ham tabiiy. Bu savolga javob berib aytish mumkinki, u kiyim-kechak sotish bilan ham shug'ullangani haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilgan.⁴ Muslim ibn al-Hajjaj hadis ilmini chuqur o'rganish maqsadida Xuroson, Iroq, Shom, Hijoz va Misrga sayohatlar qilgan. Xurosonda Qutayba ibn Sayyid, Yahyo an-Naysaburiy, Is'hoq ibn Rohuvayh kabi ustozlardan saboq olgan. Bag'dod, Kufa va Basrada Ahmad ibn Hanbal va boshqa mashhur muhaddislar huzurida bo'lgan. Shomda al-Valid ibn Muslimdan, Hijozda esa Makkai mukarrama va Madinai munavvarada taniqli roviylardan hadis eshitgan. Misrda ham yetuk ustozlardan hadislar rivoyat qilgan. Bu sayohatlar orqali

² Vafayot al-a'yon, 2 jild -B.52

³ Al Hatib al- Bog'dodiy, "Tarix Bog'dod" 13-jild, B. 103

⁴ Ibn Al-Imod, Shajaratul-zahab 2 jild B.145

u hadis ilmining yetuk bilimdoniga aylangan. Muslim ibn al-Hajjaj o'z davrining g'oyatda obro'-e'tiborli, hurmatga sazovor, o'ta haqiqatgo'y, ilm ahli va ulamolarning eng buyuk peshvolaridan biri sifatida tanilgan edi. Allomaning bir qancha zamondoshlari va shogirdlari bu xususda ishonarli ma'lumotlar qoldirganlar. Ko'pchilik olimlar Muslim ibn al-Hajjajning ilmu-fan, irfonda, xususan, hadis va fiqh ilmlarida eng yuqori darajaga yetishganini yakdillik bilan ta'kidlaganlar. Hadislarni chuqur bilishda eng mashhurlardan, uning yetuk arkoniardan biri hisoblanib, hatto ba'zilar sahih hadislarni bilishda biror kimsani undan muqaddam qo'ymagan.⁵ Bu haqida "Sahih Muslim"ga sharh yozgan mashhur olim an-Navaviy: "Muslimdan keyin o'tgan ulamolardan birortasi ham uning darajasiga yetisha olmadilar, uning davrida yashagan zamondoshlaridan kamdan-kamlarigina unga barobar kelmasdan, faqat uning darajasiga bir qadar yaqinlashishga muvofiq bo'lganlar"⁶ deb ta'kidlagan. Hadislarni yod bilishda unga hamma bir ovozdan tan berib, hatto unga "hofiz" laqabini ham berganlar. Darhaqiqat, Muslim ibn al-Hajjaj dunyoga mashhur to'rt hofizlardan, ya'ni Abu Zur'a, Abdulloh ad-Dorimiy, Muhammad al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjaj biri hisoblanadi. Hadislarni yod olganlardan "hofiz" laqabini olganlar o'rta asrlar sharoitidagi tartibga ko'ra ko'pdan-ko'p hadislarni eng kami ming, eng ko'pi uch ming hadisni yod bilishlari shart edi.⁷ Hadis borasida mukammal ilm olishga astoydil kirishgan Muslim ibn al-Hajjaj bu maqsad yo'lida butun sa'i-harakatini va bor iqtidorini sarflagan. Chunonchi bu xususda yozma manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilgan. Kunlardan bir kun u qachondandir eshitgan bir hadis haqidagi bahsda ishtirok etadi. Bu bahsdan qanoat hosil qilmagach, uyiga borib, o'z daftarlari-yu, yozuvlari ichidan o'sha eshitgan hadisni qidirib boshlagan. Shu payt muxlislardan kimdir unga bir savat xurmo keltirib qoladi. U xurmadan bitta-bitta olib yeyar, o'zi esa butun xayoliyu vujudida o'sha eshitgan hadisni qidirardi. Nihoyat savatdagi xurmolarni yeb tugatayozgandagina o'sha hadisni topadi. Tarixchi al-Yofiiy u haqda "hadis ilmining yetuk arkoni (ustun)laridan biri, "Sahih" va boshqa ko'p kitoblarning

⁵ Az-Zahabiy Tazkiratu'l-huffoz 2- jild -B.150

⁶ Sahih Muslim" sharhi, 1-jild, B. 11

⁷ Imom Muslim Ibn al-Hajjaj,-B 47

muallifi bo'lib, uning fazilatlarini mashhur, siyratlari har qanday hurmat e'tiborga loyiq zot edi''⁸ deb yozgan. Uning zamondoshlaridan ko'pdan-ko'p ulamolar Muslim ibn al-Hajjajdan hadis ilmi bo'yicha ta'lim olganlar, unga tayanib rivoyat qilganlar. Ulardan Muhammad ibn Mukhallad, Imam at-Termiziy, Ahmad ibn Salma, Abu Amdu al-Mustalami, Yahya ibn Said, Ibrohim ibn Muhammad ibn Sufyon u "Sahih Muslim"ning roviyasi, Abu Avvona al-Isfarayiniy va Makka'iy ibn Abdon va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Imom Muslim ko'pdan-ko'p asarlar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati hadis ilmiiga bag'ishlangan. Ularning ba'zilarini faqat nomlari ma'lum bo'lib, afsuski, bizgacha yetib kelmagan. Bullarda "Al-Jome' as-Sahih", Al-Munfaridat wal-Wahdon" (Alohidalatlar va yakkalar), Kitob al-Kunaw al-Asma'oi" (Kunyalar va ismlar haqida kitob) "Kitob ut-Tamyyiz" Rijol Urva ibn az-Zubay, "Kitob at-Tabaqot", ("Roviylar tabaqalari haqida kitob"). Avvalroq zikr etganimizdek, Muslim ibn al-Hajjaj butun umrida o'z davrining ko'plab yirik olimlari bilan muloqotda bo'lgan. Ayniqsa, uning bilan alloma Imom al-Buxoriy o'rtasida do'stona, samimiy aloqalar o'rnatilgan edi. Muslim ibn al-Hajjaj uchun imom al-Buxoriydan buyuk, yuqori martabali, obro'-e'tiborli bir alloma dunyoda yo'q edi. U o'z umrining oxirigacha ilmni oshirdi, ijodini to'xtatmadi. Vafotidan atigi ikki yil avval Imom Muslim Bag'dodga kelib ilmiy-ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Vafotiga qadar o'z ona yurti Nishopurda yashadi. Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, Imom Muslim 261 hijriy yil rajab oyining 24-5 may 875 yil yakshanba kuni vafot etib, ertasi (6 may) dushanba kuni dafn etilgan. Avval qayd qilganimdek, Imom Muslim ibn al-Hajjoj Nishopurda vafot etib shahar tashxaridagi Nasr Obod qabrstoniya dafn qilingan.⁹ Hijriy sakkizinchi asrda yashagan tarixchi az-Zahabiyning zikr qilishicha, uning maqbarasi ziyoratgoh joylardan hisoblangan.¹⁰ Imom Muslimning vafoti haqida yozgan tarixchilardan al-Hokim an-Naysoburiy, u o'zi oldin hech qachon eshitmagan bir hadisni ko'pdan-ko'p kitoblariyu daftarlar orasida butun jiddud-ja'hdi bilan qidirar, ayni vaqtda to'la savatdagi xurmadan bitta-bitta olib ham yeyavergan. Savatdagi bor

⁸ Al- Yofe'iy, "Mir'ot al-jinan, 2-jild

⁹ Ibn Xallikon, Vafayot al-a'yon 2- jild, B. 527.

¹⁰ Az-Zahabiy, Tazkiratu'l- Huffoz" 2-jild, B152.

xurmoni yeyib tugatgandagina izlagan hadisni topgan. Xurmoni benihoya ko'p iste'mol qilganligidan hazm eta olmay vafot etganligini xabar qiladi. ¹¹Muslim ibn al-Hajjojning vafoti haqidagi bu fakt to'g'ri yoki ajablanuvchi bo'lmasin, tarixdan ilm qurboni bo'lgan ulomoyu mutaffakkirlar haqida ayrim ma'lumotlarga egamiz. Chunki, arab tili va aruz ilmining allomasi al-Xalil ibn Ahmad (taxminan 786 yilda 108 vafo etgan) masjidning ichida ketayotib oldi-sotdi tijorat ishida odamlarga engillik yaratishga oid bir masala xususida chuqur o'yga to'lgandan masjid ichidagi ustunga boshi bilan urilganki, mana shu zarba uning vafotiga sabab bo'lib, buyuk olim ilmning qurboni bo'lgan edi. Yoki bo'lmasa abbosiylar davrida yashagan ulug' adib va shoir Abu Usmon al-Johiz (775-868) betob bo'lib, o'lim tushiagida yotganda javondan ustiga kitoblar tushib, bosib qolib, uning vafotiga sabab bo'lganini ham ilm yo'lidagi qurbonlardan deyish mumkin. Shuni aytishim mumkinki, Muslim ibn al-Hajjaj nafaqat hadis ilmining yetuk bilimdoni, balki bu sohaga o'zining qat'iy mezonlari, chuqur ilmiy yondashuvi va fidokorona izlanishlari bilan ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma sifatida islom tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning hayoti, ilm olish yo'lidagi mashaqqatlari, hadislarini to'plash va ularni ishonchlilik darajasiga ko'ra tasniflashdagi aniqligi, bugungi kunda ham hadisshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim namuna hisoblanadi. Muslim ibn al-Hajjajning o'z kasbiga va ilohiy bilimga bo'lgan sadoqati, ilmga bo'lgan cheksiz muhabbati, zamondoshlari va shogirdlari orasidagi yuksak obro'-e'tibori – bularning barchasi uning ilmiy-ma'naviy merosini yanada muqaddas va barhayot qiladi. Bugungi kunda ham u qoldirgan boy ilmiy meros tadqiqotchilar, talaba va ulamolar uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. U o'zining butun hayotini ilmga, ayniqsa, hadis ilmining puxta rivojiga bag'ishlagan zot sifatida, chinakam ilm fidoyisi darajasiga ko'tarilgan.

¹¹ Imom Muslim ibn al – Hajjaj, B. 60-61

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibn al-Imod, "Shajaratuz-zahab", 2-jild, — B. 144.
2. "Vafayot al-a'yon", 2-jild, — B. 52.
3. Al-Hatib al-Bag'dodiy, "Tarix Bag'dod", 13-jild, — B. 103.
4. Ibn al-Imod, "Shajaratuz-zahab", 2-jild, — B. 145.
5. Az-Zahabiy, "Tazkiratu'l-huffoz", 2-jild, — B. 150.
6. "Sahih Muslim" sharhi, 1-jild, — B. 11.
7. Imom Muslim ibn al-Hajjaj, — B. 47.
8. Al-Yofe'iy, "Mir'ot al-jinan", 2-jild, — B. 174.
9. Ibn Xallikon, "Vafayot al-a'yon", 2-jild, — B. 527.
10. Az-Zahabiy, "Tazkiratu'l-huffoz", 2-jild, — B. 152.
11. Imom Muslim ibn al-Hajjaj, — B. 60–61.
12. Ubaydullo Uvatov. Toshkent, 2020.